

**YURTIMIZDA MILLATLARARO MUNOSABATLARDA
BARQARORLIK TARAQQIYOTNING ASOSIY OMILI**

Mallayeva Shohida Muqumjon qizi

Farg'onadavlat universiteti ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Mamatov Mamadjan Ahmadjonovich

Farg'onadavlat universiteti falsafa fanlari doktori professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada millatlararo munosabatlarda barqarorlik taraqqiyyotning asosiy omili ekanligi hamda O'zbekistondagi barcha xalqlar va ellatlarning milliy tiklanishni ta'minlashga, huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni qurishda xalqlarning kuch-qudratini, intilishlarini birlashtirishga yo'naltirilganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Millatlararo munosabatlar, millatlararo totuvlik, davlat, jamiyat, demokratiya, strategiya, madaniy hayot.

Millatlararo munosabatlar dunyodagi har bir davlatda o'zining tarixi, xususiyatlariga ega bo'lgan, jamiyatning eng nozik va murakkab ijtimoiy-siyosiy muammolaridan biridir. Jumladan, milliy masala davlatlarda milliy xavfsizlik tushunchasini shakllantiruvchi ta'sirchan omillardan biri bo'lib, bu masalalarning ba'zi davlatlarda o'z yechimini topa olmayotganligi davlatlarning milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi omilga aylanib borayotganligi sir emas. Zero, O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov bu masala xususida to'xtalib, shunday degan edilar: "Millatlararo munosabatlarda uyg'unlik bo'lmashligi nafaqat ayrim davlatlarning, balki butun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan." O'zbekistonda mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng milliy munosabatlardagi totuvlik ijtimoiyadolat mezonlari asosida amalga oshirilmoqda. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq har bir xalqning madaniyati, o'ziga xosligini saqlab qolish va rivojlantirishga millatlararo munosabatlarni takomillashtirishning muhim omili sifatida qaraldi. Shu nuqtai-nazardan hozirgi kunda milliy munosabatlar tarixini keng o'rganish, ilmiy taxlil etish, kerakli xulosalarni chiqarish ham maqsadga muvofiq. O'zbekistondagi millatlararo munosabatlarga 1989 yilda saylangan Respublikaning yangi rahbariyati alohida e'tibor qaratganini ta'kidlash lozim. Respublikamizda mavjud bo'lgan ko'p millatli tarkibni saqlab va mustahkamlash muhim vazifalardan biriga aylandi. Bu vazifani amalga oshirishda barcha xalqlarning teng huquqlilagini ijtimoiyadolat asosida ta'minlashga katta e'tibor berildi. Turli millatlar, elatlar o'rtasidagi hamkorlik mustaqillikni mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri sifatida

qaraldi. Dastlabki vaqtданоq O'zbekiston Prezidenti Kengashida milliy-madaniy markazlar va ularning ishini takomillashtirish to'g'risidagi masala muhokama qilindi. 1990-1991 yillardan millatlararo munosabatlar sohasida yuksak madaniyatni shakllantirish uchun yaxlit tizim yaratila boshladi. Davlat va jamoatchilik asosida milliy va turli ijtimoiy harakatlar tashkil etilishi millatlararo munosabatlarni takomillashtirishda, mavjud muammolarni yechishda katta rol o'ynadi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Ular O'zbekistonning ko'p millatli jamiyatini siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy jihatdan qayta qurish jarayonida ijobiyligi rol o'ynamoqda" Zero, O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni izga solish respublikada istiqomat qilayotgan turli elat va millat vakillari o'rtaqidagi birdamlik, do'stlik rishtalarini mustahkamlashga harakat qilar ekan, bu boradagi vazifalarni hal etishda tarix saboqlaridan xolisona xulosa chiqarishning ham ahamiyati kattadir. Davrlar tajribasi ko'rsatishicha, har bir davlat o'zining taraqqiyot yo'lida jamiyatning g'oyaviy, mafkuraviy birligiga tayangan. Olamshumul tarixiy jarayonning bir bo'lagi O'zbekiston tarixini barcha tarixiy davrlarda uning hududida yashagan qabila va xalqlar tarixidan ajratib bo'lmaydi. Hozirgi O'zbekiston hududida qadim zamonlardan beri bugunga qadar turli-tuman etnoslar yashab kelgan. Uzoq davr mobaynida bu hududda hukmdorlar, sulolalar va davlatlar almashinib turgan. Shu bilan birga ushbu hududda mavjud bo'lgan an'naviy mahalliy etnoslar bilan bir qatorda, ularga tashqaridan doimiy kelib qo'shiluvchi etnoslarning aralashuvi va uyg'unlashib ketishining uzoq davom etgan jarayoni ham tarixiy vogelikka aylangan. Masalan, yaqin sovet davrida O'zbekistonga jalb qiluvchi omillarning asosiysi – bu hududning qulay tabiiy va iqlimi sharoiti, Respublikaning strategik iqtisodiy-geografik joylashuvi edi. Mamlakat aholisining 84 foizini mahalliy millatlardan o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, tojik va turkmanlar tashkil etadi. Tub millat bo'lganlarning orasida 8,3 foiz ruslar bor. Ma'lumki, davlatimizning suverenitet haqidagi deklaratsiyasid amilliyligini tamoyillari shakllantirilgan bo'lib, ularda jamiyatimizning murakkab ijtimoiy munosabatlarga doir maqsad va vazifalar, O'zbekistondagi barcha xalqlar va ellatlarning milliy tiklanishni ta'minlashga, huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishda xalqlarning kuch-qudratini, intilishlarini birlashtirishga yo'naltirilgan muayyan amaliy chora tadbirdilarga oid ustivor masalalar qamrab olingan.

Binobarin, O'zbekiston davlatining milliy siyosati moxiyatini quyidagi masalalar tashkil qiladi:

-barcha millatlarning ma'naviy va moddiy madaniyatini rivojlantirish uchun qulay shar tsharoitlar yaratish;

-O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro milliy ko'pchilikka yoki milliy ozchilikka mansubligidan qat'iy nazar, teng huquqlilik, erkinlik, yuridik maqom asosida o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirish. O'zbek xalqi shovinizm, natsionalizm, boshqa xalqlar va millatlarga ola qarash yoki ularni behurmat qilish kabi

illatlar xaligacha mamlakat tarixida biron marta bo'lsin uchramaganligi bilan haqli ravishda faxrlanadi. Millatlararo totuvlikning haqiqiy barometri-xalk fikri. O'zbekiston-tarixan teng huquqli xalqlardan tashkil topgan ko'p millatli mamlakat. Davlat shu mamlakatda yashayotgan barcha milliy guruhlarning huquqlari, siyosiy va madaniy jabhalarda ishtirok yetishimkoniyatlari saqlanishi, ularning qonuniy manfaatlarini amalga oshishini o'z madaniyati, tili, o'ziga xosligi saqlanishini kafolatlaydi, turli madaniyatlar gullab yashnashi uchun shart sharoit hozirlaydi. Mana shunday amaliy asosdagina mamlakatda xalqlar taraqqiyotining milliy-madaniy rivojini, ko'ngilli ravishdagi hamkorliklarni, siyosiy-iqtisodiy jipslikni, millatlararo kelishimlarni ta'minlash mumkin. Xo'sh sohaga xos xususiyatlar va millatlararo munosabatlar holatini belgilaydigan jarayonlar nimadan iborat? Avvalo, shuni qayd etish o'rinliki, O'zbekistondagi qariyb barcha millat va ellatlarning milliy o'z-o'zini anglash darajalari, milliy madaniyat, tarix, til, ta'lif masalalariga bo'lgan yalpi qiziqishlari, umuman olganda millatlararo jipslashuv jarayonining mustaxkamlanishiga xizmat qiladi. Mana shunday jipslashuv o'zining mustaxkam iqtisodiy tarixiy va ijtimoiy asoslariga ega bo'lib, aynan ana shu asoslar jamiyatda barqaror taraqqiyot muammolarini xal qilishda birgalikda hattiharakatga ehtiyoj kuchliligini namoyon etmoqda, ushbu soxadagi ishlarning holati millatlararo munosabatlarmasalasining dolzarbli hayotiy jarayonning nazariy va amaliy jihatlari nihoyatda muhim. Millatlararo munosabatlarning sotsiologiya fani nuqtai nazaridan o'rganilishi turli darajalarda-umum davlat, mahalliy va shaxslararo darajada amalga oshiriladi. Sotsiologiya fanida millatlararo munosabatlarning quyidagi muammolari muhim sanaladi, bular milliy o'z-o'zini anglash va milliy psixologiyaning shakllanishi, an'analarning, urfodatlar va tillarning rivojlanish qonuniyatları asosida hal qilish. O'zbekiston aholisining 8.3% ni rusiy zabonaholi-ruslar, ukrainlar, beloruslar, polyaklartashkilqiladi. Ular bilan yonmayon ozarbayjon, tatar, turk, dungan, koreys, gruzin, moldavan, armanlar va boshqa milliy guruxlar yashab mehnat qiladilar. Bular baynalminallik tuyg'usining amalda o'ziga xos ravishda namoyon bo'lishi turli millatlar va milliy etnik guruhlar millatlararo muammolarning o'zaro o'zaro munosabatga kirishishidir. Shuning uchun ham ular alohida ijtimoiy voqe'liklar tarzida namoyon bo'ladi va ijtimoiy munosabatlar tarkibini hosil qiladi, shu bilan birga mazkur munosabatlar Respublika aholisining o'zaro ahilligini hamkorligini namoyon qiluvchi faoliyatdir. O'zbekistondagi ko'p millatli mamlakatda ko'p narsa millatlararo munosabatlarning qay darajadaligiga bog'liq. Turli milliy guruhlarga mansub odamlar yuz yillar mobaynida davomida janjallarsiz yashab kelayotgan kishilar endilikda o'zaro munosabat va aloqalarda muomala jarayonlarida ishonchszilik yoki boshqa noqulayliklar sezmasligi juda muhimdir. Jamiyat hayotini demokratlashtirish sharoitdagi mamlakatdagi barcha 130 ga yaqin millat va madaniy markazlar o'zlarini uchun zarur bo'lgan madad va qo'llab quvvatlashlarga ega bo'ladilar, zero ularning

faoliyati mustaqil O‘zbekiston madaniy hayotida eng yorqin sahifalar bo‘lib hisoblanadi. Ularning har tomonlama faoliyatlarini yangi asoslarga kengaytirish davlatlararo munosabatlar tizimidagi vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishda ham muhim ehtiyojdir. Bu O‘zbekistonning biron bir xorijiy davlat bilan madaniy va iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishda mamlakatimizda yashab turgan milliy diaspora bajara oladigan xizmatlar diasporasida ayniqsa yorqin ko‘rinadi. Milliy diasporalar o‘zlarining ta’rixiy vatanlari bilan aloqalarni mustaxkamlashni milliy madaniy markazlar miqiyosida delegatsiyalar vizit almashuvlari natijasida fanta’lim, madaniyat, san’at, biznes va tadbirkorlik sohalarida muayyan vazifalarni hal qilishlari mumkin. Istiqlol yillarida amalga oshirilgan madaniy tadbirlar xalq diplomatiyasi asosida yo‘lga qo‘yilgan hamkorliklar bunga misoldir.

Xulosa:

Tahlil qilinayotgan masalalarni yana bir jihatni mavjud jamiyatni demokratlashtirish sharoitida ayniqsa ijtimoiy madaniy hayotda erkin mustaqil mulohazalar va o‘z o‘zini iroda etishning o‘sishi kuzatilmogda. Ular O‘zbekistondagi ijtimoiy –siyosiy va millatlararo xayotga nisbatan odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirishga ham ta’sir etayotir. Binobarin boshqaruv organlari ham endilikda o‘zlarining ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirmoqda, ular jamiyatdagi ijtimoiy, demografik siyosiy, iqtisodiy, satsiomadaniy, millatlararo kechayotgan jarayonlar haqida aniq ma’lumotlarni jamoatchilik fikrini o‘rganib bormoqdalar. Zero, jamoatchilik fikrini o‘rganishda hodisalar mohiyatini taxlil qilish juda muhim negaki tahlil materiallari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda bashorat qilishda bebah o‘rin tutadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mustaqil O‘zbekistonda jamoatchilik fikrini o‘rganish va inobatga olish mamlakatdagi modernizatsiya va demokratlashtirishning asosiy omillaridandir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari. Toshkent 1996-yil.
- 2.Abdullayev M. Madaniyatshunoslik. Farg’ona, 1998-yil.
- 3.Abdullayev M. Abdullayev A. Ma’naviyat va madaniyat tarixi. Farg’ona, 1998-yil.
- 4.Etnomadaniyatfanidan ma’ruzalar matni. 1-qism. Farg’ona, 2001-yil.
- 5.Shoniyo佐 K. O’zbek xalqining shakllanish jarayoni. Toshkent Sharq, 2001-yil.